

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

GANIYEVA ORZIGUL XAYRIDINOVNA

**XX ASR AMERIKA REALISTIK NASRI POETIKASI (J.STYUART,
J.STEYNBEK, T.VULF IJODI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)
Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science degree (DSc)

Ganiyeva Orzigul Xayridinovna

XX asr Amerika realistik nasri poetikasi (J.Styuart, J.Steynbek, T.Vulf ijodi
misolida).....3

Ganieva Orzigul Khayridinovna

The Poetics of 20th-Century American Realistic Prose (Based on the Works of
J.Stuart, J.Steinbeck, T.Wolfe)35

Ганиева Орзигул Хайридиновна

Поэтика американской реалистической прозы XX века (на примере
творчества Дж.Стюарта, Дж.Стейнбека, Т.Вулфа)65

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....71

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

GANIYEVA ORZIGUL XAYRIDINOVNA

**XX ASR AMERIKA REALISTIK NASRI POETIKASI (J.STYUART,
J.STEYNBEK, T.VULF IJODI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.DSc/Fil485 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Baqoyeva Muxabat Kayumovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Gadoyeva Mavluda Ibragimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rajabov Dilshod Zaripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Muxammedova Hulkar Eliboyevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «14» aprel soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (583 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «02» aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil «02» aprel dagi 25-08 - raqamli roestr bayonnomasi).



D.S.O'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,
professor

F.M.Xajiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida XX asr tarixiy-ijtimoiy kontekstidagi jahon urushlari, fan va texnologiyadagi o'zgarishlar, jamiyatdagi evrilishlar, ilmiy-nazariy tafakkurning taraqqiyoti, janriy modifikasiyalar natijasida antroposentrik yondashuvga intilish yanada kuchaydi. XX asr AQSH realistik nasrida ham badiiy maydonda inson nuqtai nazaridan yondashish, epik bayon usullarida novatorona tajribalar, mavzuiy ko'lamdorlikning yanada kengayishi, olamni obrazli badiiy qayta yaratishda poetik ifoda rakurslarining turfalashuvi kuzatildi. Garchand qisqa tarixiy ildizlarga ega bo'lsa ham, tematik jihatdan jahon adabiyotida boy va dramatik sanalgan Amerika adabiyoti, ayniqsa XX asr AQSH realistik nasrining negizlarini, mazkur asarlarning yaratilishida turtki bergan omillarni, ularning tub mohiyatini tadqiq qilish hozirgi axborot oqimi jadallagan zamonamizda inson, uning mushohadasi rivoji, joriy voqelikga mustaqil nuqtai nazarga ega bo'lishi yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida realistik yo'nalishda yaratilgan nasriy ijod namunalarida antroposentrik yondashuv insonning ijtimoiy mavqei yoinki zohiri emas, balki uning botini, ruhiyati hamda shaxs sifatida murakkabligi, hissiy olamining istifoda etilishi orqali shaxs va jamiyat, inson va tabiat munosabatlarining haqqoniy tasvirini gavdalantirish imkoniyatini berdi. XX asr AQSH realistik nasrining imkoniyat chegaralarini, poetik ifoda rakurslarida mualliflarning badiiy-estetik strategiyalarini aniqlash, realistik asarlari poetikasida shakl va mazmun mutanosibligi, janr modifikasiyasida novatorona tendensiyalarning ko'lamini ochib berish, nosirlarning badiiy konsepsiyasida ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-konseptual maydonni tadqiq qilish hamda nazariy asoslash bu yo'nalishda yozilgan nasriy namunalarning takomili va janriy tabiatini ochib berishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poe'devorini barpo etish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, jadal o'zgarishlar, ilgari surilayotgan ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetish, milliy taraqqiyotimiz istiqbolidagi strategik yo'llar zamirida "insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma'naviyat chirog'i"¹ yotishi, uning inson ongi va tafakkuri mukammallashuvida, qalbi, vijdonini uyg'otishda, odamiylik hissini kuchaytirishida² beqiyos ahamiyati ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, real hayot manzaralari gavdalantirilgan badiiy asarlar tadqiqi, poetik tasvir predmeti, badiiylik moduslari, epik ifoda yo'sinlarida mualliflar individualligi, janriy tabiatiga oid masalalarni ilmiy-nazariy yoritib berish, XX asr AQSH realistik nasrining janriy xususiyatlarini aniqlash, taraqqiyot tamoyillari va janriy jihatdan poetik tahlilga tortish majburiyatini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikki hcn nashri. – T.: - O'zbekiston, 2023. – B. 248.

² Shu manba, B. 248.

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. XX asr AQSH realistik nasri, taraqqiyot tendensiyalari, tadriji hamda takomili, nasriy janrlarning nazariyasi va poetikasi bo‘yicha ko‘plab yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, hikoya janri nazariyasi, zamonaviy Yevropa hikoyachiligi (Kaliforniya davlat universiteti, AQSH), kichik nasriy asarlar ilmiy tadqiqi, tarixi va nazariyasi (Salamanka universiteti, Ispaniya), kichik nasriy asarlarda madaniyat, empirik poetika (Ayova Universiteti, AQSH), nasr ritorikasi (Chikago Universiteti, AQSH), roman nazariyasi, nasrda o‘zlik va madaniyat in’ikosi (Kolumbiya universiteti, AQSH), zamonaviy amerika novellasi nazariyasi va tematikasi (Kent universiteti, Buyuk Britaniya), XX asr AQSH realizmi, taraqqiyoti, ta’sir etgan omillar tahlili (Rossiya davlat gumanitar universiteti, Rossiya), XIX-XX asr Amerika badiiy realizmi, tanqidiy nazariyasi, intellektual shuhrati (Texas universiteti, AQSH), tanqidiy realizm va uning nazariy asoslari (Vashington universiteti, AQSH), janr shakllanishi: monogenezis (birlamchi shakllanish) va janriy majmua yoki poligenezis (ko‘p manbali shakllanish) (Edinburg universiteti, Buyuk Britaniya), individual mualliflar ijodida badiiy psixologizm, ruhiyat tasviri (Toshkent davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston)) kabi muammolar o‘z yechimini topgan.

Dunyo adabiyotshunosligida XX asr badiiy maydonida realistik hikoya, qissa va roman janrlarining taraqqiyot xususiyatlarini aniqlash; mazkur nasriy asarlarning kompozitsion qurilishi hamda rivoya yo‘sini tizimi mazmun-mohiyatini

konseptual yondashish orqali izohlash; poetik talqinda ramziylik va metaforiklik teranlashuvining subyektiv va obyektiv faktorlarini belgilab berish borasidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. XX asr Amerika realistik hikoyachiligi nazariyasi, tarixi hamda takomillashuv bosqichlari D.Ross, P.Stevik, A.Voss, S.Mann, J.Gerlach, M.Skofild, A.Uerlok, V.Patea, Ch.Mey, A.Bendiksen, A.Neydjl, U.D.Houells, H.Gelfant, L.Greyver, F.O’Konnor, E.Meletinskiy, N.Tagiyeva, L.Jalilova³, novella yoki qisqa roman janrining poetikasida muhim jihatlar M.Springer, J.Leibowitz, J.Paine, Ch.Nayder, J.Payn, U.Uossertstrom, G.Gud, R.Li⁴ singari munaqqidlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu tadqiqotlarda AQSH hikoyachiligi va novellachiligining nazariy hamda tarixiy poetikasi xususida e’tiborli xulosalar bayon qilingan. Adabiyotshunoslar XX asr realistik hikoyasi rivojida ahamiyatli hissa qo‘shgan H.Jeyms, E.Heminguey, F.Skott Fitzjerald, E.Uelti, U.Folkner kabi adiblar xizmatini alohida qayd etib, syujet va konflikt, tematik qamrov, janriy ko‘rinishlar hamda badiiylik moduslaridagi evrilishlarni o‘rganishgan.

XX asr realistik romani, romaniy tafakkurda uslub rang-barangligi, ijodiy uslub individualligi, romanchilik tendensiyalarida yetakchilik qilgan xususiyatlar, janriy turfalik, romanda poetik mahorat masalalari D.Medden, P.Roulings, H.R.Braun, D.Tayler, O’Donnell, L.Trilling, H.Jeyms, U.But, P.Barrish, T.Metyus, R.Labri, A.Zverev, M.Xolbekov, F.Xajiyeva, N.Qobilova singari nazariyotchilar tomonidan jahon adabiyotshunosligida yetarlicha tadqiq qilingani e’tiborni tortadi⁵.

³ Ross D. The American short story. – The USA: North Central Publishing Company, St. Paul, 1961. – P.47; Stevick P. The American Short Story 1900-1945: A Critical History. – The USA: Twayne Publishers, 1984. – P. 209; Voss A. The American Short Story. The USA: The University of Oklahoma Press, 1973. – P.399; Mann S.G. The Short Story Cycle: A Genre Companion and Reference Guide. – The USA: Greenwood Press, 1989. – P. 228; Gerlach J. Toward the End: Closure and Structure in American Short Story. – The USA: The University of Alabama Press, 1985. – P. 193; Scofield M. The Cambridge Introduction to the American Short Story. – The UK: Cambridge University Press, 2006. – P.291; Werlock A.H.P. The Facts on File Companion to the American Short Story. – The USA: Facts on File, 2000. – P.542.; Patea V. Short story theories. A Twenty-First Perspective. – N.: Rodopi, 2012. – P. 345; May Ch. The New Short Story Theories. – USA: Ohio University Press, 1994. - P.369.; Bendixen A., Nagel J. A Companion to the American Short Story. – S.: Blackwell Publishing LTD, 2010. – P.535.; Howells W.D. Some anomalies of the short story. / The North American Review, Vol.173, No. 538, 1901. / P.422-432.; Gelfant H.B., Graver L. The Columbia Companion to the Twentieth-Century American Short Story. – USA: Columbia University Press, 2000. – P.605.; O’Connor, F. The Lonely Voice. The Study of the Short Story. The USA: The World Publishing Company, 1963. – P.215.; Meletinskiy E. Istoricheskaya poetika novella. – M.: Nauka. Glavnaya redaktsiya vostochnoy literature, 1990. – S.275.; Jalilova L. J. XX asr boshidagi Amerika satirik novellasi poetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro, 2021. – B.50.

⁴ Springer M.D. Forms of the Modern Novella. – USA: University of Chicago Press, 1975. – P.216.; Leibowitz J. Narrative Purpose in the Novella. – H.: Mouton, 1974. – P.137.; Short Novels of the Masters. Edited with an introduction by Charles Neider. – N.Y.: Carrol & Graf Publishers, Inc, 1989. - P.650.; Paine J.H.E.. Theory and Criticism of the Novella. – B.: Bouvier, 1979. – P.268.; The Modern Short Novel. Edited by William Wasserstrom. – The USA: Holt, Rinehart and Winston, Inc, 1966. – P.676.; Good Graham. Notes on the Novella. // Novel: A Forum on Fiction, Vol.10, No.3,1977.//P.197-211.; Lee A. Robert. The Modern American Novella. – USA: Palgrave Macmillan, 1989. – P.192.

⁵ Madden D. A Primer of the Novel. For Readers and Writers. – The USA: The Scarecrow Press, 2006. – P.276.; Rawlings P. American Theorists of the Novel. – NY.: Routledge, 2006. – P.171.; Brown, H.R. The Great American Novel. // American Literature, 1935, Vol.37, No.1. // P. 1-14.; Tyler. D. The Cambridge Companion to Prose. – UK: Cambridge University Press, 2021. – P.273.; A Companion to the Modern American Novel. 1900-1950. Ed. by John T. Matthews. – UK: Wiley-Blackwell, 2009. – P.617.; O’Donnell. The American Novel Now: Reading Contemporary American Fiction Since 1980. – M.: Wiley-Blackwell, 2010. – P.248.; Booth, W.C. Rhetoric of Fiction. – USA: The University of Chicago Press, 1983. – P.574. ; Barrish, P. J. The Cambridge Introduction to American Literary Realism. – USA: Cambridge University Press, 2011. – P.241.; Labrie. R. James’s Idea of

J.Styuart ijodi XX asr adabiy tangiqchiligida munosib baholanib, nosirning hikoyalari hamda romanlarining poetik jihatlariga risola, tadqiqot hamda maxsus nashrlarda munosabat bildirilgan. E. L.Bleyr, M.Klark, E.T.Arnold, R.E.Foster, J.A.Ho'rndn, D.Kohler, D.Miller, J.H.Spurlok, S.L.Bevard tadqiqotlarida J.Styuart nasrining sotsiomadaniy va ritorik tahlili, individual asarlari poetikasi, regionalist sifatida individualligi borasidagi ilmiy-nazariy umumlashmalar monografik aspektida atroflicha o'rganilgan⁶.

J.Steynbekning naturalistik nasri poetikasi, muallif nutqi xususiyatlari, hikoyalarda gender masalalari, ijtimoiy tuzum hamda shaxs munosabatlari talqini, personajlar galereyasida turli rakursdan yondashuv, adib ijodida xronotop, yozuvchi hikoyalarda obrazli ifoda D.A.Lous, M.L.Mitchel, J.H.Timmerman, T.Hayashi, K.Ariki, J.Benson, S.Baturin, J.K.Stefen, D.Noubl, U.Souder, J.Jouns, S.Shukurova tadqiqotlarida yoritilgan⁷.

XX asr AQSH realistik nasri taraqqiyotida T.Vulf ijodi ham alohida qayd etilib, ko'plab tadqiqotlarida mikrokomparativistik yondashuv asosida o'rganilgan. Ijtimoiy munosabatlar va ularning badiiy voqelanishi, poetik ifodada individuallik, o'zlik masalalari, adibning badiiy-estetik qarashlari, alohida nasriy namunalari misolida janriy spetsifikasi, qahramonlar ruhiyati tasviri kabi masalalar J.A.Bentz, C.H.Holman, O.Kogdel Stil, M.S.Danelia, T.Mitchell, J.Skotchi, J.M.Mouldi, D.H.Donald, F.Sadullayev tomonidan atroflicha tahlilga tortilgan⁸.

Consciousness. // American literature, Vol.39. No.4., 1969 // pp.517-529.; Зверев А. Ранний этап становление реализма: [Литература США второй половины XIX в.] // История всемирной литературы: В 8 томах. — М.: Наука, 1983—1994. — Том 7; 1991. — С.549—552.; Xajiyeva F. Postmodernizm va biografik roman. — B.: Durdona, 2022. — P.124.; Qobilova N. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro, 2020. — B.44.;

⁶ Blair E.L. Jesse Stuart; his life and works. — Columbia: University of South Carolina Press, 1967. — P.320.; Clarke M.W. Jesse Stuart's Kentucky. — N.Y.: McGraw-Hill, 1968. — P.264.; Arnold E. T. The Canonization of Jesse Stuart // Appalachian Journal, Vol. 13, No. 1, 1985. // pp. 28-33// Appalachian Journal and Appalachian State University. <https://www.jstor.org/stable/40932677>; Foster R.E. Jesse Stuart. — NY: Twayne Publishers, 1968. — P.176.; Herndon J.A. & Brosi G. Jesse Stuart, the man and his books. — USA: The Jesse Stuart Foundation, 1988. — P.176.; Kohler D. Jesse Stuart and James Still: Mountain Regionalists. // The English Journal, 1942. Vol. 31. // P.173-183.; Spurlock J.H. A sociocultural and rhetorical analysis of Jesse Stuart's fiction. A Dissertation submitted to the Faculty of the Graduate School of the University of Louisville in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy, 1986. — P.212.; Bevard. Samuel Lee. Character, Conflict, and Statement in Three Jesse Stuart novels: The Movement toward Hope and Salvation. // A Thesis presented to the Faculty of the Graduate School Morehead State University, 1976. // P.120.

⁷ Laws D.A. The Settings for the Stories: A Tour of John Steinbeck's "The Valley of the World". // The Steinbeck Review, 2009. Vol.6, No.1. — P.27-43. <https://www.jstor.org/stable/41582096>; Mitchell M.L. Steinbeck's Storm Women. Feminine Identity in the Short Stories.//Southwest Review, Vol.61, No.3, 1976. — P.304-315. <https://www.jstor.org/stable/43468868>; Timmerman J.H. Organizational and Gendered Imagery in John Steinbeck's "The Chrysanthemums".//The Steinbeck Review, 2012. Vol.9, No1. — P.29-37. <https://www.jstor.org/stable/41582920>; Steinbeck's Short Stories in "The Long Valley": Essays in Criticism. Edited by Tetsumaro Hayashi. Steinbeck Monograph Series, No.15. — USA: Ball State University, 1991. — P.116.; Ariki K. and others. John Steinbeck's Global Dimensions. — USA: Scarecrow Press, 2008. — P.212.; Benson Jackson J. The Short Novels of John Steinbeck. — USA: Duke University Press, 1990. — P.349.; Багурин С. Джон Стейнбек и традиции Американской литературы. — М.: Художественная литература, 1984. — С.351.; George K.Stephen. The Moral Philosophy of John Steinbeck. — USA: Scarecrow Press, 2005. — P.201.; Noble D. Critical Insights. John Steinbeck. — MA.: Salem Press, 2011. — P.414.; Souder W. Mad at the World. A Life of John Steinbeck. — USA: W.W.Norton & Company, 2020. — P.446.; Jones G. Reclaiming John Steinbeck. Writing for the Future of Humanity. — UK: Cambridge University Press, 2021. — P.252.

⁸ Bentz J. A Critical analysis of the short fiction of Thomas Wolfe. — A thesis submitted to the Faculty of Purdue University in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy, 1991. — P.269.; C. Hugh Holman. Thomas Wolfe. — USA: University of Minnesota, 1960. — P.48.; J. Cogdell Steele. Time and American autobiography: Four twentieth-century writers. A thesis submitted in partial fulfillment of the requirements for the

Mazkur tadqiqotda J.Styuart, J.Steynbek hamda T.Vulf ijodi misolida XX asr AQSH realistik nasri poetik xususiyatlari, real hayotning badiiy istifoda etilishi, subyekt-obyekt-adresat munosabatlarida an'anaviy yondashuv va novatorona tendensiyalar namoyon bo'lishi yaxlit tizim sifatida ochib beriladi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjima ishi" ilmiy tadqiqot ishlari rejasi hamda AQSHning Michigan davlat universiteti hamkorligida amalga oshirilgan Faculty Enrichment Program loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asr AQSH realistik nasridagi poetik yangilanishlar, ularni keltirib chiqargan tarixiy-ijtimoiy omillarni J.Styuart, J.Steynbek hamda T.Vulf nasri misolida yaxlit nazariy tizim sifatida ochib berish orqali XX asr AQSH realizmi tendensiyalarining badiiy-estetik negizlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asr Amerika realistik adabiyotida kichik nasriy janrlarning ijtimoiy-tarixiy genezisi; poetik ifoda spetsifikasini mavjud ta'riflar hamda adabiyotshunoslikdagi janr nazariyasiga oid zamonaviy yondashuvlar asosida umumlashmalar chiqarish;

XX asr Amerika realistik qissalari poetikasida shakl va mazmun mutanosibligi, janr modifikasiyasida novatorona tendensiyalarning ko'lamini ochib berish;

XX asr AQSH romanchiligida an'anaviy realistik roman hamda modern romanning ilmiy-estetik negizlarini aniqlash;

J.Styuart regional nasri badiiy konseptual olami maydonini belgilashda poetik ifoda rakurslarida muallif individualligi, romaniy tafakkur badiiy voqelanishida makonga mansublik kategoriyasining ahamiyatini yoritish;

J.Steynbek nasri poetikasida kompozitsion strukturaning spetsifikasi, janriy tabiatida nosir ifoda yo'sinidagi individuallikni uslub nuqtai nazaridan ko'rsatish;

T.Vulf nasri poetikasida modernizm an'analari ustuvorligi, bevosita va bilvosita xarakterlash, badiiy ifoda ko'lamida adabiy sintez hodisasi jihatidan ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida J.Styuartning "Another April" va "Love" hikoyalari, "Daughter of the Legend" romani; J.Steynbekning "The Chrysanthemums" va "The White Quail" hikoyalari, "Cannery Row" va "Of Mice and Men" qissalari, "The Winter of Our Discontent" romani; T.Vulfning "Return" va "No Cure for It" hikoyalari, "The Lost Boy" qissasi, "You Can't Go Home

degree of Doctor of philosophy in English in the Graduate College of The University of Iowa, 1978. – P.230.; Дanelia M.C. Сопоставительный анализ психологической новеллы У. Фолкнера и Т. Вульфа. Автореферат диссертации по филологии. – Грузия, 1985.; <https://www.dissercat.com/content/sopostavitelny-analizpsikhologicheskoi-novelly-u-folknera-i-t-vulfa>; Mitchell T. Thomas Wolfe: A Writer's Life. – USA.: Appalachian State University, 2017. – P.137.; Scotchie J. Thomas Wolfe Revisited. – USA: Land of the Sky Books, 2001. – P.164.; Mauldin J.M. Thomas Wolfe. – USA: University of Tennessee Press, 2007. – P.384.; Donald, D.H. Look Homeward: a life of Thomas Wolfe. – USA: Harvard University Press, 2002. – P. 612.; Sadullayev F. B. XX asr Amerika adabiyotida inson ruhiyati tasviri (H. Jeyms va T. Vulf ijodi misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro, 2023. – B.49.

Again” romani tanlangan.

Tadqiqotning predmetini XX asr AQSH realistik nasri, xususan mazkur badiiy jarayonda yaratilgan hikoya, novella, qisqa roman (qissa) hamda roman janrida J.Styuart, J.Steynbek hamda T.Vulf tomonidan yaratilgan asarlar poetikasi va badiiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari Tadqiqot jarayonida biografik, tavsiflash, kognitiv-diskursiv, badiiy-psixologik, funksional-stilistik, ijtimoiy-madaniy, interpretativ kabi tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko’rinadi:

XX asr AQSH romanlarida real faktlarga asoslanib ijod qilgan adiblar tomonidan hukmron muhit, voqea-hodisalar, davr kishilari hamda topologik mansublik obyektiv bayon va subyektiv talqinda gavdalanirilganligi, takrorlanmaydigan yangi ovozlari, eksperimental uslublar, yangi yondashuvlar orqali voqelikning parchalangan, tartibsiz hududlariga qadar kirib borishi, bir vaqtning o’zida struktural yaxlit tizimga ega badiiy olamni narrativ ‘tortishish kuch’lari yordamida ifodalanganligi aniqlangan;

J.Stuart, J.Steynbek va T.Vulf nasri misolida XX asr Amerika realistik nasri poetikasining badiiy konsepsiyasi, g’oyaviy-axloqiy mohiyati, muallif badiiy-estetik strategiyasi, nasriy asarlarning badiiylik moduslari lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo’lganligi isbotlangan;

J.Styuart nasri poetikasida “suhbat uslubi” (“talk style”) hamda yumoristik ruhning regional badiiy ifodada yaxlit uyg’unlashuvi, simvolik mazmundagi real tasvir, modernistik elementlar garmoniyasi, bilvosita muallif hamda ishonchli roviyning binar oppozitsiyasi, sotsiopsixologiya hamda adabiyotshunoslik integratsiyasi qahramon portretining makonga mansublik negizida gavdalanishi asoslangan;

J.Steynbek nasri poetikasi ijtimoiy tizim bilan murosaga kela olmagan qahramonlar – asosan ayollar, bolalar va o’smirlar obrazlari, ular orqali umidsizlik hamda tushkunlik motivlarining akslanishi, personaj ma’naviy-ruhiy olami tasviri yordamida kitobxon bilan mustahkam psixologik aloqa o’rnatilishi, naturalistik yondashuv ifodasi, simvolik hamda obrazli tasvir, qahramon ruhiy olami badiiy detallarining polifunksionalligi kabi poetik parametrlar ustivorligida voqelanishi isbotlangan;

T.Vulf nasrida epik bayon yo’sinida dinamik siljish vositasida vaqt qadri hamda hayot mazmuni kabi ekzistensial mavzuning qo’llanilishi, qahramon xarakteristikasidagi real tasvir hamda kechinma garmoniyasi voqelanishi, liro-epik rivoyaning ustunligi, gibrid roman janri xususiyatlari asosida namoyon bo’lgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XX asr AQSH realistik nasrida yaratilgan hikoya, qissa hamda roman janriga mansub asarlarning badiiy, kompozitsion, lingvopoetik jihatlarini, badiiy tasvirda yetakchilik qilgan tamoyillarni, milliy adabiyotda an’analar va novatorona yondashuvlar sintezlashuvini aniqlashda J.Styuart, J.Steynbek hamda T.Vulf nasriy asarlarining badiiy qimmatini, janriy ichki dinamik siljish sodir bo’lgani, yozuvchilar poetik izlanishlari mohiyati va ahamiyati aniqlangan;

XX asr AQSH realistik nasri, poetik xususiyatlari, badiiy-estetik spetsifikasiga oid jihatlarni tadqiq qilish, J.Styuart, J.Steynbek hamda T.Vulf nasri misolida tahlillarimizni dalillash mazkur janriy tendensiyalarning mohiyatini anglash, yondashuvlar sintezi, ishonchli roviy, bilvosita va bevosita muallif epik bayonida individual uslub, ijodiy tafakkur tarzida milliy-madaniy o'ziga xosliklarning roli mavjudligi yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlar va faktik materiallarni qo'llashda ishonchli ilmiy manbalardan foydalanilganligi, chiqarilgan xulosalarning dissertasiyada biografik, tavsiflash, kognitiv-diskursiv, badiiy-psixologik, funktsional-stilistik, ijtimoiy-madaniy, interpretativ kabi tahlil metodlari bilan asoslanganligi, nazariy g'oyalar va ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyot nazariyasi, XX asr AQSH realistik hikoyachiligi, qissachiligi hamda romanchiligi tarixiy, xususiy va nazariy poetika, J.Styuart, J.Steynbek, T.Vulf poetik mahorati yuzasidan chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan Amerika realistik nasrida adabiy oqimlarga xos xususiyatlarning ijodiy sintezlashuvi, janr tabiati va modifikatsiyasi, epik bayonda individuallik bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o'rta maxsus, umumta'lim tizimida realistik badiiy nasr tabiatini o'rganish, janriy tabiatida spetsifik jihatlarni farqlash, real tasvirda qahramon ichki va tashqi olami mohiyatini tahlil qilishda "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti (Amerika adabiyoti moduli)", Jahon adabiyoti, XX asr Angliya-Amerika adabiyoti, Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari kabi fanlardan yaratilajak darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr Amerika realistik nasri poetikasini aniqlash bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

XX asr AQSH romanlarida real faktlarga asoslanib ijod qilgan adiblar tomonidan hukmron muhit, voqea-hodisalar, davr kishilari hamda topologik mansublik obyektiv bayon va subyektiv talqinda gavdalantirilganligi, takrorlanmaydigan yangi ovozlari, eksperimental uslublar, yangi yondashuvlar orqali voqelikning parchalangan, tartibsiz hududlariga qadar kirib borishi, bir vaqtning o'zida struktural yaxlit tizimga ega badiiy olamni narrativ 'tortishish kuch'lari yordamida ifodalanganligiga doir nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish" mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 16-dekabrda №04/1-4145-son ma'lumotnomasi). Natijada janriy tendensiyalarning mohiyatini anglash, yondashuvlar sintezi, ishonchli roviy, bilvosita va bevosita muallif epik bayonida

individual uslub, ijodiy tafakkur tarzida milliy-madaniy o'ziga xosliklarning bevosita rolini kuchaytirilishiga erishilgan;

J.Stuart, J.Steynbek va T.Vulf nasri misolida XX asr Amerika realistik nasri poetikasining badiiy konsepsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, muallif badiiy-estetik strategiyasi, nasriy asarlarning badiiylik moduslari lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo'lganligiga oid nazariy xulosalardan Buxoro davlat universitetida AQSHning Toshkentdagi elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80021IN3103 raqamli xorijiy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 12-dekabrda №06/7846-son ma'lumotnomasi) Natijada XX asr AQSH realistik nasrida yaratilgan hikoya, qissa hamda roman janriga mansub asarlarning badiiy, kompozitsion, lingvopoetik jihatlarini, badiiy tasvirda yetakchilik qilgan tamoyillarni, milliy adabiyotda an'analar va novatorona yondashuvlar sintezlashuvini aniqlashda J.Styuart, J.Steynbek hamda T.Vulf nasriy asarlarining badiiy qimmati, janriy ichki dinamik siljish sodir bo'lgani, yozuvchilar poetik izlanishlari mohiyati va ahamiyati asoslanilishiga erishilgan;

J.Styuart nasri poetikasida "suhbat uslubi" ("talk style") hamda yumoristik ruhning regional badiiy ifodada yaxlit uyg'unlashuvi, simvolik mazmundagi real tasvir, modernistik elementlar garmoniyasi, bilvosita muallif hamda ishonchli roviyning binar oppozitsiya, sotsiopsixologiya hamda adabiyotshunoslik integratsiyasi natijasida qahramon portretining makonga mansublik asosida gavdalanirishiga oid nazariy xulosalardan AQSHning Michigan davlat universitetida o'tkazilgan Yettinchi Yillik Xalqaro Ilmiy Ko'rgazmasi tadbirlari dasturlarida foydalanilgan (Michigan davlat universitetining 2023-yil 5-maydagi ma'lumotnomasi) Natijada AQSH realistik nasrida yaratilgan hikoya, qissa hamda roman janriga mansub asarlarning badiiy-kompozitsion hamda lingvomadaniy jihatlarini, nasrda yetakchilik qilgan tamoyillarni, an'analar va novatorona yondashuvlar sintezlashuvini aniqlashga erishilgan;

J.Steynbek nasri poetikasi ijtimoiy tizim bilan murosaga kela olmagan qahramonlar – asosan ayollar, bolalar va o'smirlar obrazlari, ular orqali umidsizlik hamda tushkunlik motivlarining akslanishi, personaj ma'naviy-ruhiy olami tasviri yordamida kitobxon bilan mustahkam psixologik aloqa o'rnatilishi, naturalistik yondashuvning ustunligi, simvolik hamda obrazli tasvir, qahramon ruhiy olami badiiy detallarining polifunksionalligi ustivorligida voqelanishi bilan bog'liq ilmiy xulosa va natijalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 314-323-raqamli nashr ruxsatnomasi asosida 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti" nomli darslikni yaratishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 12-dekabrda №01-02/684-son ma'lumotnomasi) Natijada yondashuvlar sintezi, ishonchli roviy, bilvosita va bevosita muallif epik bayonida individual uslub, ijodiy tafakkur tarzida milliy-madaniy o'ziga xosliklarning bevosita roli mavjudligi yoritib berilishiga doir nazariy va faktik materiallar orqali o'quv adabiyoti takomillashtirilgan;

T.Vulf nasrida epik bayon yo‘sinida dinamik siljish vaqt qadri hamda hayot mazmuni kabi ekzistensial mavzu ustuvorligi, qahramon xarakteristikasidagi real tasvir hamda kechinma garmoniyasi voqelanishi, liro-epik rivoyaning ustunligi, gibrid roman janri xususiyatlari negizida namoyon bo‘lgani bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi “Buxoro” telekanalining “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda” teledasturlari stsenariysini tuzishda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-dekabrda №01-09-178-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar ilmiy-ommabopligining ta’minlanishiga, ilmiy manbalar bilan boyitilishiga va teletomoshabinlarning ushbu soha yuzasidan bilimlarini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi Tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘kazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, ulardan, 11 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 234 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**XX asr AQSH realistik nasri tadriji hamda poetik xususiyatlari**” deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan tarkib topgan, unda XX asr Amerika realistik adabiyotida kichik nasriy janrlar taraqqiyoti, genezisi hamda ijtimoiy-tarixiy asoslari, poetik ifoda individualligi, XX asr Amerika realistik qissachiligida poetik konstruksiya masalasi, shakl va mazmun mutanosibligi, XX asr Amerika realistik romani taraqqiyotida an‘ana va modern yondashuvlar tadqiqi keltirilgan. Amerika hikoyachiligi taraqqiyoti bosqichlarining izchil o‘rganilishida nasrning kichik janri sifatida rivojlangan mazkur asarlar turlicha kasb etgani diqqatni tortadi, ayniqsa “short story, short short story, long story, novella” kabi bahsli terminlar mushohadaga chorlaydi. Bu asarlarning hammasida asos “story”, ya’ni “voqea” ekanini inobatga olganda, ta’kidlash o‘rinliki, nasrning kichik janrlari sanalgan hikoya, novella garchi o‘xshashlik kasb etsa ham, ular orasida tafovutli jihatlar mavjud. Nazariy manbalarda hikoyaning ikki xil turi e’tirof etilishini inobatga oladigan bo‘lsak, ya’ni “uning ocherkliligi (tavsifiy-rivoyaviy) hamda novellistiklik (konflikli-rivoyaviy) jihatlarini nuqtai nazaridan dastlabkisini

hikoya, keyingisini novella deb, farqlash amaliyoti ham adabiyotshunoslikda mavjud”⁹. Novellaning, izchilroq yondashganda, novellistik hikoyaning o‘ziga xos xususiyatlari uning syujeti va kompozitsiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi, shuningdek sahnaviylik, syujetning keskin rivojlanishi, kutilmagan burilishga egaligi mazkur asarlarning janriy o‘ziga xosligini tashkil etadi.

XX asr AQSH hikoyachiligi xususida so‘z ketganda, avvalo, millat adabiyotida mazkur janrning tarixiy ildizlari, vujudga kelishi, ijtimoiy-madaniy omillar hamda tamoyillar kabi masalalar tadqiqi dolzarblik kasb etadi. Garchi hikoya janr sifatida Amerika adabiyotida XIX asr boshidan rivojlanish yo‘lidan borgan bo‘lsa ham, janr sifatida XX asrdan boshlab mukammallik kasb eta boshladi. XX asr Amerika hikoyalari o‘zining betakror tematikasi, qahramonlari galereyasi, kompozitsion qurilishi, uslubiy izchilligi bilan shu kecha-kunduzga qadar adabiyotshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda¹⁰. E.Uerlok “Companion to the American Short Story” kitobining muqaddimasida zamonaviy hikoyachilikning asoschilari sifatida rus adibi A.Chexov hamda frantsuz yozuvchisi G.Mopassan singari ikki buyuk namoyandani qayd etgani holda, “...Hech bir mamlakat Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi bu janrni shu qadar ishtiyoq va sermahsullik bilan qabul qilmagan. Dastlabki amerikalik yozuvchilar ongli ravishda Amerika manzaralarini tasvirlab, o‘ziga xos mintaqalar va nutq uslublarini aks ettirishgan, hozirgi zamon yozuvchilarining ayrimlari ham shu an’anani davom ettirmoqda. Hikoya Amerikaga xos badiiy janr bo‘lib qolgan, chunki u nafaqat bu ulkan va xilma-xil mamlakatning turfa ovozlari va falsafalarini o‘rganish uchun, balki jamiyatning irq, jins va sinf masalalariga bo‘lgan qiziqishini, milliy ongini hamda shaxsning ba’zan haddan tashqari murakkab bo‘lib ketadigan Amerika hayotidagi ruhiy va jismoniy o‘rnini tahlil qilish uchun ham xizmat qiladi. Demak, Irvingdan hozirgi kungacha Amerika qisqa hikoyasi “milliy ongning ko‘rsatkichi” bo‘lib kelmoqda¹¹”, deb ta’kidlaydi. Hikoya “millat idrokining ko‘rsatkichi”ni o‘zida ifodalagan ijod namunasi sifatida boshqa nasriy janrlarga qaraganda taraqqiy topdi, hanuzgacha mustahkam mavqe egallab turganining isboti Ch.B.Braun va V.Irvingdan tortib, M.Tveyn, E.Heminguey, G.Stayn va U.Folkner orqali, to J.K.Oats, R.Karver, S.Sisneros, L.Erdrich, J.E.Uaydmen, E.Tenga qadar yaratilgan asarlarda yaqqol ko‘rinadi.

Amerika adabiyotida realizm an‘analari XIX asrning so‘nggi choragidan boshlanib, sekin-asta rivojlana bordi, nasrda realistik tendensiyalar XX asrda ham davom etdi. Garchi XX asrda realizmning ko‘rinishlari hisoblangan naturalizm,


⁹Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 402.

¹⁰ Ross D. The American short story. – The USA: North Central Publishing Company, St. Paul, 1961. – P 47; Stevick P. The American Short Story 1900-1945: A Critical History. – The USA: Twayne Publishers, 1984. – P. 209; Voss A. The American Short Story. The USA: The University of Oklahoma Press, 1973. – P.399; Mann S.G. The Short Story Cycle: A Genre Companion and Reference Guide. – The USA: Greenwood Press, 1989. – P. 228; Gerlach J. Toward the End: Closure and Structure in American Short Story. – The USA: The University of Alabama Press, 1985. – P. 193; Scofield M. The Cambridge Introduction to the American Short Story. – The UK: Cambridge University Press, 2006. – P.291; Werlock A.H.P. The Facts on File Companion to the American Short Story. – The USA: Facts on File, 2000. – P.542.

¹¹ Werlock A.H.P. The Facts on File Companion to the American Short Story. – The USA: Facts on File, 2000. – P.VIII.

regionalism, tanqidiy realizm, psixologik realizm hamda modernizm kabi adabiy oqimlar ma'lum bosqichlarda ustuvorlik qilgan bo'lsa ham, umuman millat adabiyoti realistik yo'nalishida bo'ldi. Realizm adabiyotda hayotni boricha tasvirlash bo'lsa, naturalizm uning keskinroq ko'rinishi sifatida asarda barcha detallargacha qamrab olinishiga harakat, desak mubolag'a emas. Adabiyotshunos E.Uerlok realizmni rassomchilik san'atiga, naturalizmni fotografiyaga o'xshatadi¹². Uning fikricha, realist ijod namunasida real hayotni tasvirlash uchun detallarni o'ta ehtiyotkorlik bilan tanlaydi, naturalist esa fotosuratlash singari fokusidagi mavjud hamma detallarni tasvirlaydi. Naturalistik asarlarning badiiy bo'yoqdorligini ham ana shu jihat ta'minlaydi.

XX asr hikoyachiligi va novellistikasi ham davrning ijtimoiy muammolari, asrning shafqatsiz janglari, ziddiyatlar ichra o'ralashib qolgan insonni yorug'likga yetaklashga, o'z qobi'gidan chiqa olishiga, to'g'ri yo'l va yechim topishiga yordam bera oladigan maktab vazifasini o'tadi. XX asr AQSH hikoyachiligi taraqqiyoti tadqiqida adabiyotshunoslar asarlarning tarixiy-evolyutsion, janriy, badiiy-ijodiy o'ziga xosligiga ko'ra o'rganishgani e'tiborga molik. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, XX asr Amerika realistik hikoyalarini badiiy-estetik umumiylik kasb etgan xususiyatlari jihatidan quyidagi yo'nalishlarda o'rganish millat hikoyachiligi tendentsiyalarini kengroq qamrab olish imkonini yaratadi:



XX asrda jurnallarda hikoyalar chop etish an'anasi 1930-1940-yillarda cho'qqiga chiqdi. "Atlantic Monthly", "Harper's Magazine", "Esquire", "Saturday Evening Post", "The New Yorker" singari ko'plab jurnallar muxlislarini bir-biridan maroqli hamda mazmunli kichik nasriy asarlar bilan mamnun qildi. G. P. Anderson bu guruh yozuvchilarga nisbatan "adabiy jurnalistlar" ("literary journalists") terminini qo'llaydi¹³. Davrning yetuk yozuvchilari Sh.Anderson, U.Keyter, T.Drayzer, T.Vulf, F.S.Fitsjerald, E.Glazgo, E.Uorton, S.Lyuis, R.Lardner singari mualliflar o'zlarining eng sara ijod namunalarini jurnal sahifalarida e'lon qilib borishdi.

XX asr Amerika realistik hikoyachiligi rivojida ayol yozuvchilarning hissasi ham beqiyos bo'ldi. Garchi hikoyachilikda ayol adibalarning ijodi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lsa ham, yangi davr hikoyachiligida ularning xizmati shu qadar bo'ldiki, feministik kichik nasriy asarlar betakror an'analari bilan millat adabiyotida o'z o'rniga ega bo'ldi. Hikoyanavis feministlar qatorida E.Uorton, K.Porter, U.Keyter, K.Chopin, E.Uelti, F.O'Konnor kabi namoyondalarni sanab o'tish mumkinki, ular yaratgan ijodiy meros nafaqat salafлари yaratgan qadriyatları, balki yangi tendensiyalarni aks ettirdi.

¹² Werlock A.H.P. The Facts on File Companion to the American Short Story. – The USA: Facts on File, 2000. – P.361.

¹³ Anderson G.P. Research Guide to American Literature. American Modernism, 1914-1945. – USA: Facts on File, 2010. – P. 20.

XX asr modern hikoyachilik rivojida H.L.Menken, S.Lyuis, F.Skot Fitsjerald, U.Folkner, R.Lardner kabi ko‘plab nosirlarning hissasini ta’kidlash joiz. V.Pateaning e’tiroficha, adabiyot va san’atda modernizm an’analari rivojida V.Vulfning ta’siri kuchli bo‘lib, aynan shu davrdan boshlab, insonning hissiyotlari olamiga chuqur kirib borish, uning sarhadlari tadqiqiga e’tibor kuchaydi¹⁴. Davr hikoyachiligi rivojida ularning qator janriy qirralari shakllana bordi va kuzatishlarimizga ko‘ra ularni quyidagi o‘ziga xos jihatlarda ko‘rish mumkin:

| |
|---|
| Oddiy xalq hayotidagi voqealarni tasviri hamda ularning mashaqqat va hasratlari in’ikosi |
| Qahramon ruhiy olamiga teran kirib borishda ong oqimi, ichki monolog, retropeksiya, ba’zida introspeksiya va prospeksiyaning unumli qo‘llanilishi |
| Badiiy asar tilida tajribalar – so‘z o‘yini, alluziya, simvolizmning keng ishlatilishi |
| Sodda va ravon rivoya ustunligi, yondashuvning oddiyligi va hayotiyiligi |
| Murakkab insonlararo munosabatlar hamda ularning o‘zaro ijtimoiy ta’siri ifodasi |
| Qahramonning botini va zohiri talqinida, syujet rivojida dialoglarning samarali roli |
| Jismoniy va ijtimoiy makon, real zamon ifodasida muallifning jiddiy diqqat qaratishi, tafsilotlarga qadar yoritilishi |
| Irq, jins, sinf kabi ijtimoiy hamda siyosiy muammolar tadqiqining kitobxon uchun uchun oyna vazifasini o‘tashi |
| Dualistik mazmun ustunligi |

XX asr AQSH realistik qissachiligi AQSH realistik romanchiligi hamda hikoyachiligi bilan taqqoslaganda, ancha kam e’tibor qaratilgani, bunga bu janrning bahstlab tabiati, struktural jihatdan murakkab tuzilishi hamda ritorik-tematik¹⁵ salmoqdorligi kabi omillar tufayli bo‘lishi mumkinligi e’tiborimizni tortdi. M.D.Springer “Forms of the Modern Novella” tadqiqotini novella janrining o‘rganilmagan tabiatiga nisbatan chuqur qiziqishi, novella yoki “qisqa roman” deb ataladigan bunday asarlarni munosib baholanishi va uqilishi uchun tayinli javob darkorligini ta’kidlash bilan boshlab, roman janrining ahamiyati, uning strukturaviy elementlari, mazmuniy hamda hissiy jihatlariga daxldor yaratilgan ilmiy ishlar, hikoya janrining ham formal xususiyatlari teran o‘rganilgan tadqiqotlar yetarlicha bajarilganini qayd etadi, ammo (“Curiously, the serious study of the novella remains an almost desert area¹⁶”) qiziqarli tomoni shundaki, novellaning jiddiy tadqiqi deyarli tashlandiq soha, deb baho beradi. So‘nggi yillarda novella, qisqa romanlar – qissa janri tadqiqiga oid qator ishlar olib borildiki, mazkur janrda yaratilgan asarlarning shakliy xususiyatlari, mazmuniy qamrov doirasi, janriy ko‘rinishlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar M.D.Springer, Ch.May. G.Gud, J.H.E.Paine, J.Leibovitz, K.Vidmir, G. Stenli singari olimlar

¹⁴ Patea V. Short story theories. A Twenty-First Perspective. – N.: Rodopi, 2012. – P. 17.

¹⁵ Izoh: adabiyotshunoslikda va san’atshunoslikda muhim tushunchalardan biri bo‘lib, asarlarning mazmuni, mavzusi va uslubining qanchalik muhim yoki ta’sirchan ekanligini anglatish maqsadida qo‘llanadi.

¹⁶ Springer M.D. Forms of the Modern Novella. – USA: University of Chicago Press, 1975. – P.2.

tomonidan olib borildi va bu borada ancha qimmatli mulohazalar hamda xulosalar bildirildi.

H.Jeyms AQSH qissachiligi rivojiga yuksak hissa qo‘shgan ahamiyatli ijodkorlardan biridir. Uning “Daisy Miller” (1878), “The Turn of the Screw” (1898) singari novella-qissalarida muallif qahramonning ruhiy olamiga chuqur kirib, asarlarida psixologik tahlilning yorqin namunalarini ko‘rish mumkin.

Roman janri, umuman nasriy asarlar poetikasi, badiiyatiga xos dastlabki diqqatga molik, keyinchalik bir qator tadqiqotlarga zamin bo‘la olgan nazariy fikrlar H.Jeyms, L.Trilling, U.K.But singari olimlar tomonidan bildirilgan. Mazkur munaqqidlar Amerika adabiyotshunosligida XX asrda ustuvorlikga erishgan Yangi tanqidchilik (New Criticism) adabiyot nazariyasining oqimlaridan birining mamlakatda yuqori boshqichlarga chiqishida ahamiyatli o‘rin egallashdi. P.Roulings “American Theorists of the Novel” risolasida nasriy asarlar, roman janri, realizm hamda uning talqini, muallif va roviylar, rivoyada ularning roli hamda o‘rni (U.K.Butning ‘ehtimoliy muallif’ (‘implied author’) hamda ishonchli/ishonchsiz muallif (‘reliable/unreliable author’), H.Jeymsning ‘nuqtai nazar’ (‘points of view’), ong va onglilik masalalari, ‘anglashning markazlari’ (‘centers of consciousness’)ga oid qarashlari, kitobxon va mutolaa, badiiy asar tahlilida yondashuvlar, axloqiy intellekt (‘moral intelligence’) (L. Trilling Z.Freydning ta’limoti va psixoanaliz nazariyasi talqiniga munosabat bildiradi) ga oid fikrlarini ilgari suradi¹⁷.

AQSH realistik romani shakllanishida realizmning yana bir ko‘rinishi mahalliy kolorit yoki regionalizm adabiyoti muhim o‘rin egallaydi. XIX asr so‘nggi o‘n yilliklarida tamal toshi qo‘yilgan bu yo‘nalish XX asrda ham muayyan mualliflar romanlarida davom etdi. Mazkur adabiyot vakillari o‘zlari mansub hudud tasviri hamda talqinida yangi shakl va mazmunda badiiy asarlar yaratishdi. XIX asr so‘ngida H.Garlend, B.Gart, S.O.Jyuet, K.Shopin singari mualliflar shahar sanoat markazlaridan uzoqda bo‘lgan qishloq joylar hayotini realistik tasvirlab, bu hududlarga xos sheva, xalq og‘zaki ijodi, madaniyatini saqlab qola olgan, qayta gavalantirgan nasriy asarlar yaratishdi. XX asr regional romanchiligi qator zabardast yozuvchilar hissasi evaziga yuksalishga erishdi. U.Keser (Willa Cather) “O Pioneers!”, “The Song of the Lark”, “My Antonia” va “One of Ours” kabi romanlarida Nebraska shtatida istiqomat qiluvchi fermerlar hayotiga teran nazar tashlaydi. Yozuvchi qishloq xalqi hayotini turli ranglarda batafsil aks ettirib, fermerlar, dehqonlar va migrantlarning og‘ir hayotiga chuqur kirib boradi. U. Keser mahalliy tasvir va qahramonlar ichki olami in’ikosini birlashtirib, universal mavzularning badiiy ifodasini keltiradi. Romanlarda umid, umidsizlik, murakkab ijtimoiy sharoitda insoniylikga sodiq qolish, madaniy mansublik mavzularini keng yoritadi. Nosir regional talqin yordamida hukmron jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy evrilishlarini yorqin namoyon etadi.

U.K.But romanda yozuvchining mezon borasida muayyan qoidalarini ta’kidlab, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar hamda hatti-harakatlar ifodasi, bu

¹⁷ Rawlings P. American Theorists of the Novel. – NY.: Routledge, 2006. – P.2.

normativ me'yorlar talqinida har qanday muallif o'zining aniq axloqiy pozitsiyasini namoyon qilishi lozimligini qayd etadi. Bunday vaziyatda romannavis bevosita kitobxon bilan axloqiy normalar haqida muloqot qilish imkoniyatiga erishib, nafaqat rivoya qilish, balki ijtimoiy hamda axloqiy masalalar muhokamasi orqali reseptorga ta'sir qila olish imkoniyatini qo'lga kiritadi. U.K. Butning nazdida, aniq axloqiy pozitsiyaga ega bo'lmagan romanlar o'zining ta'sirdorligini saqlab qola olmasligi mumkin¹⁸. H.Li "To Kill a Mockingbird", J.Steynbek "The Grapes of Wrath", R.Ellison "Invisible Man", T.Morrison "Beloved" singari romanlarida yuqorida ta'kidlangan fikrlarda keltirilganidek, badiiy asarning axloqiy-estetik maqsadini aniq ifodalab, kitobxonni ijtimoiy hamda axloqiy masalalar ustida chuqurroq mushohada qilishga majburlaydi.

Ikkinchi bob "J.Styuart regional nasrining badiiy-konseptual olami" deb nomlanib, unda J.Styuart nasri, uning hikoya hamda roman janrida qilgan barakali ijodi, nasriy namunalarining poetik jihatlari, nosirning individual mahorati, nasrda vorisiyligi va novatorona yondashuvi tadqiq qilindi. "Another April" va "Love" hikoyalari, "Daughter of the Legend" romani misolida muallif asarlarining regional nasrda qamrov doirasi, poetik rakurslari, badiiy konseptual olami tahlil qilindi. J.Styuart o'ziga xos ijodi, poetik tafakkuri hamda mushohadasining kengligi, hayotiy haqiqat tasvirida real yondashuvi, badiiy haqiqatda xolisonalikga rioya etgani va nuqtai nazarining teranligi, poetik ifoda rakurslaridagi aniqligi bilan XX asr AQSH realistik hikoyachiligida individuallikga erishgan nosirlardan biriga aylandi.

1941-yilda "Accent: A Quarterly of New Literature" adabiy jurnalida nashr qilingan "Another April" hikoyasida vaqt, inson hayotida umrning shiddat bilan o'tishi, hayot qadri va mazmuni, bolalik sururi, tabiat betakrorligi kabi mavzular yoritiladi. Asarda personajlar sistemasida uchta figura bo'lib, har uchalasining badiiy vazifasi mutanosib tarzda namoyon bo'ladi. Hikoyadagi to'qson yoshdan oshgan bobo obrazi muallif tug'ilib o'sgan Appalachian tog'lariga xos katta avlodning tipik namunasi ekani e'tiborni tortadi. Yozuvchi hatto qariya timsoli tasviriga ham turli rakursdan yondashadi. Asarning dastlabki qismlarida nevara orqali tasvir quyidagicha keltiriladi: "He looked like a picture of Santa Claus. But Grandpa's cheeks were not cherry-red like Santa Claus's cheeks. They were covered with white thin beard --- and above his eyes were long white eyebrows almost as white as percoon petals and very much longer¹⁹". J.Styuart dinamik portret orqali qahramonini butun dunyoda qorbobo yoki asosan Yevropa, Amerika, Avstraliya qit'alarida Santa Klaus sifatida tanilgan qahramonga o'xshatish badiiy ifoda vositasi yordamida gavdalantiradi. "Santa Claus" obrazi afsonaviy timsol bo'lib, G'arb xristian madaniyatiga xos hamda ko'plab folklor qadriyatlar bilan bog'liq²⁰. Nevara uchun bobosining oiladagi roli bevosita shu obraz tasviriga uyg'un ravishda aks ettiriladi. Yangi yilda Santa Klausni ko'rishi bilan mamnuniyat his qiladigan har bir oiladagi farzand singari nevara personaji ham

¹⁸ Booth, W.C. Rhetoric of Fiction. – USA: The University of Chicago Press, 1983. - P. 212.

¹⁹ <https://fliphtml5.com/bjcs/ceam/basic>

²⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Santa_Claus


bobosiga nisbatan xuddi shunday hissiyotlari mavjud ekani yozuvchi Santa Klaus, uning gilos kabi qizargan yonoqlari, oppoq nurli soqoli hamda uzun nuroniy qoshlari yordamida ifodalaydi. Aynan shu tasvirda yana bir e'tiborli jihat mavjudki, bu J.Styuart uslubi poetikasida muhim xususiyatlardan biri ekani anglashiladi. Misoldagi "percoon" badiiy detali muallifning o'zi istiqomat qilgan hududning tipik muhitini gavdalantirishida ahamiyat kasb etadi. "Courier Journal"ning 1955-yildagi nashrida J.Styuart "percoon" o'simligi haqida batafsil ma'lumot beradi²¹. Aslida bu o'simlik "bloodroot" ("qonli ildiz") deb nomlanib, ammo ilk Kentukkilik mahalliy zanchi qabilalar tilidan uni "puccoon" shaklida o'zlashtirib, muomalaga kiritishgani, butun mamlakatda bu o'simlik "bloodroot" shaklida qo'llanilsa, aynan shu hududda "percoon" sifatida muomalada ekani izohlab beriladi. O'simliklar olamida "sangvinariya" deb ataladigan bu gul faqat Shimoliy Amerika mintaqasida uchrab, ildiziga har qanday shikast yetkazilsa, ochiq qizil suyuqlik sizib chiqqanligi sababli, "bloodroot" – "qonildiz" deb ham ataladi²². Bir qarashda moychechakni eslatadigan, ammo moychechakga qaraganda gulbarglari ancha zichroq joylashgani unga betakror ifoda baxsh etadi. Muallif qahramonining qoshlarini aynan gulbarglarga mengzashi ham poetik ifodadagi o'zgachalikni ta'minlaydi.

J.Styuart maqolada mazkur gul mahalliy xalqlar uchun ramziylik kasb etgani, mahalliy zanchi qabilalari uning ildizidan olinadigan alvon rangdagi sharbatidan marosimlarida tana a'zolarini bo'yashda foydalanishlarini, shuningdek bu gul Kentukki bahorining darakchisi ekani hamda dunyodagi betakror o'simliklardan biri ekanini ham qayd etadi. Ko'rinadiki, yuqoridagi bosh qahramonning dinamik portretida "percoon" gulining oq rangli o'simlik sifatida kasb etgan mazmun-mohiyatidan maqsadli foydalaniladi. Oilaning keksa a'zosi sanalgan bobo ehtiroimga ega inson, yillar zalvori, mavsumlar silsilasidan mustahkam insoniylik fazilatlarini bilan yashab kelayotgan qahramon sifatida o'zidan keyingi avlodga shu qadriyatlarini yetkazuvchi, Vatanga sadoqat hamda sodiqlikni o'zida mujassam etgan obraz ko'rinishida gavdalanadi. Muallif xalq orasida o'z qimmatiga ega ramziy gulning sifatlarini bobo personajiga ko'chiradi. Zukko kitobxon muallifning oq rangi misolida qahramonidagi soflik, musaffolik, poklik hamda pokizalik, halollik, samimiylik hamda donishmandlik xislatlariga urg'u berganini anglaydi. Hududdagi har bahorni boshlab beradigan "percoon" guli esa Kentukki madaniyati, tarixi, betakror xalqi, an'ana hamda qadriyatlarining timsoli sifatida qahramon tasviri bilan uyg'unlik hosil qiladi.

J.Styuart hikoyalarida gavdalantirgan W-Hollow tog'lar va qirlardan iborat olam bo'lib, qishda kuchli izg'irin, bahorda betakror ranglarga burkanadi. Bu vodiy nabotot olami mamlakatning boshqa hududlaridan farq qilib, o'ziga xoslik kasb etadi. Hatto odamlari, ularning yuz ifodalari hamda tana tuzilishlaridagi farqli jihatlar badiiy talqiniga muallif keng o'rin ajratadi. Adibning regional tasvirda qamrov doirasi hajmli ekani diqqatni tortadi.

²¹ <https://www.newspapers.com/article/the-courier-journal-percoon/47984461/>

²² <https://www.botanichka.ru/article/sangvinariya-tenelyubiviyiy-mnogoletnik/>



J.Styuart hikoyalarida regional badiiy qamrovning eng keng aspektlaridan biri hayvonot hamda nabotot olami orqali tasvir ekani barcha personajlar badiiy ifodasida ustuvorlik qilgani ayonlashadi. “Another April” hikoyasida to‘qson bir yoshli boboning birgina yuz ifodasi talqinida qo‘llangan nabotot olamiga xos elementlardan tashqari, xatti-harakatlari tasvirida foydalanilgan “stooped over slowly, as slowly as the wind bends down a sapling” (“xuddi shamol niholni ohista bukganidek, sekin engashdi”) ulug‘ yoshli insondagi vazminlikni; “he stopped to examine every little thing along his path” (“yo‘lidagi har bir arzimlas narsani ham e‘tiborsiz qoldirmadi”) bobo obrazidagi hayotga va tabiatga ehtiromni; “Grandpa loved the sunshine and the fresh April air that blew from the redbud and dogwood blossoms²³” (“Bobo zarrin quyosh nurlarini va sersis (qizil kurtakli daraxt) hamda dogvud daraxti gullaridan esgan sof Aprel havosini yaxshi ko‘rardi”) tabiat va inson orasidagi abadiy rishtalarning muhimligini istifoda etadi.

Hikoyachilikda asarning g‘oyasini har doim ham zohiriy elementlar yoki belgilarga jo qilish emas, aksincha botiniy unsurlarga tayanib, ijodkor ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyani tagma’no yordamida anglash mumkin. J.Styuart hikoyalarida badiiy niyatini turli modernistik elementlar – ong oqimi, ichki monolog, badiiy psixologizmlarning bilvosita shakllari – qahramonlarning xatti-harakatlari, jest hamda yuz ifodalari; turli obrazlar – daraxt, yo‘l, gul, hayvon, dala singari obrazlar yordamida amalga oshirilishi kuzatiladi. “Love” hikoyasida “Another April” hikoyasi singari nabotot olamiga izchil ahamiyat qaratilmaydi, asarda mahalliy dialekt hamda hayvonot dunyosiga teran nigoh tashlanadi. Hikoyada “Mother sun” (Ona quyosh), a fence (panjara), cows (sigirlar), young corn (navnihol makkajo‘xori), Bob (it), blacksnake (qora ilon), ground squirrel (yer olmaxoni), red blood (qizil qon), an egg (tuxum), house (uy), dead snake (o‘lik ilon), dew (shudring), wind (shamol) singari obrazlar ota va bola personajlari bilan yonma-yon keltiriladi. Chuqurroq nazar tashlanganda, muallif shu makonga yaqin inson ekani, uning tabiat bilan uyqash munosabati, Ona Yerga muhabbati, samimiy hislari ifoda etilgani namoyon bo‘ladi. J.Styuart hikoyalaridagi obrazlar sistemasiga mufassal e‘tibor qaratilsa, ularning mazmuniy munosabati kitobxon uchun yozuvchining badiiy niyatini anglashga, hikoyalarning bosh g‘oyasini fahmlashga, universal mavzular hamma zamon va makonda birdek ahamiyatli

²³ <https://docplayer.net/234563871-Another-april-by-jesse-stuart.html>

ekanini uqishga yordam beradi. “Love” hikoyasida sanab o‘tilgan qator obrazlar sirasidan eng asosiylari makkajo‘xori, dala, ilon, quyosh, hali ochilmagan jonzotning tuxumi, tong kabi elementlar asar kompozitsiyasida ahamiyatli bo‘lib, ular onaning farzandga muhabbati, o‘zaro mehr va sadoqat, kuchli va kuchsiz o‘rtasidagi asrlararo murosasiz kurash badiiy talqin etilgan hikoyaning mazmunini to‘la ochib beradi. Hikoyada itning ilonga hammasi epizodi aynan bola nigohi orqali tasvirlanadi: “I could see the snake didn’t want to fight the dog. The snake wanted to get away²⁴”. Ilonning kurashdan qochayotgani, sudralib yuruvchilarga xos bo‘lmagan bu holat roviyni hayratlantiradi. Buning sababi uni qiziqtirib qo‘yadi. Personaj ruhiyatida ga‘layon kechib, nega ilon tepaliklar uzra yastangan do‘ngtepalarga shoshilgani ajablantiradi. Shu daqiqada yozuvchi metaforik tasvir orqali ilonning “she” (ingliz tilida: ayolga nisbatan qo‘llanadigan kishilik olmoshi) ekaniga ishora qiladi. “I looked as the snake lifted its pretty head in response to one of Bob’s jumps²⁵”. “Pretty head” go‘zal va maftunkor boshi uning bo‘lak jins vakilasi ekanini bildirib, ayollarga xos nazokat, nafislik va halimlik singari xususiyatlar ilon obraziga ko‘chiriladi. Bola personaji bevosita ko‘z o‘ngida kechayotgan badiiy voqelikdagi holatga guvoh bo‘lar ekan, ona-ilonning farzandlari hayoti uchun fidoiyligini, hatto o‘z jonidan kechganini kuzatib, aslida ona-ilon tepaliklardagi qumlarga hayot berishni istagan bolachalarini asrash uchun ketayotganini fahmlaydi. J.Styuart poetik niyatining mag‘zini kitobxonga anglatadi. Bu rakursdan qaraganda, ijodkorning hikoyalari didaktik mohiyat kasb etib, XX asr AQSH regional hikoyachiligida shu kabi obrazlar orqali real voqelikdagi evrilishlarga munosabatini, badiiy konsepsiyasining asosini tashkil etgan – olam va odam aloqalaridagi o‘zaro mehr va muhabbat, hurmat va ehtirom kabi konseptlarning ilgari surilishi natijasida J.Styuart fenomeni vujudga kelgani ayni haqiqatdir.

J.Styuart o‘zi mansub Kentukki mikroduyosiga xos o‘zlik poetik talqinida muallif individual uslubini ta‘minlagan omillardan yana biri – Amerika folkloridan AQSH adabiyotiga o‘zlashgan “suhbat uslubi” (“talk style”), AQSH hikoyachiligida ustuvorlik qilgan yumoristik ruh, Mark Tven olib kirgan hamda boyitgan AQSH kengliklariga xos regional tasvir uyg‘unlashuvidan hosil bo‘lgan yondashuv ekani oydinlashadi. Ijodkor o‘zi daxldor hudud tasvirida faqat nabotot yoki hayvonot olamiga mansub elementlardan foydalanish bilan cheklanmadi. Regional dialekt hamda xalq og‘zaki ijodi merosining o‘rinli qo‘llanilishi ham hikoyalarning haqqoniyligi, hayotiyligi hamda ta‘sirdorligini ta‘minlay oldi. “Another April” hikoyasida dialektik birliklar ko‘proq bola va nevara suhbatlarida namoyon bo‘lsa, “Love” hikoyasida bola va otasining dialoglarida ko‘proq kuzatiladi. Mahalliy xalqlarning og‘zaki nutqida qo‘llangan birliklardan foydalanish xarakterlarning hayotiyligini ta‘minlab, hududda hukmron muhitni his qilish imkonini beradi.

1965-yilda chop etilgan “Daughter of the Legend” romani XX asrda juda dolzarb hisoblangan irqilararo tolerantlik mavzusiga bag‘ishlanib, J.Styuart jamiyatdagi irqiy kamsitilish, bir mamlakatda yashab diskriminatsiyaga uchragan

²⁴ McConochie J.A. Twentieth Century American Short Stories. – M: Высшая школа, 1979. – С.90.

²⁵ Здесь, С.90.

aholi dardu-anduhlarini yorqin aks ettiradi. Garchi J.Styuartning barcha ijod namunalari bo'lganidek makon sifatida Appalachia tog'lari tanlansa ham, avvalgi romanlaridan farqli o'laroq, bu romanda makonni o'zining tug'ilgan joyi — Kentukki shtatidagi Grinap okrugidagi tog'lardan Tennessi shtatidagi balandliklarga ko'chiradi. Appalachia tog'lari eng katta tog' tizmalaridan biri bo'lib, butun mamlakat bo'ylab yastanib yotadi, romanda Tennessi shtatida joylashgan qismi tanlanib, tog'li xalqqa xos e'tiqod, an'ana va qadriyatlar, nabotot va hayvonot olami keng yoritiladi. Yozuvchi faqat mamlakatning shu qismida hukmron irqiy kamsitilish mavzusini badiiy voqelantirar ekan, bu nafaqat AQSH uchun, balki butun dunyo uchun og'riqli mavzulardan biri ekanini ochib beradi.

“Daughter of the Legend” romanida bosh qahramonlar Deyv Stouning va Deysiya Hantun o'rtasida kechadigan shirin munosabatlar haqida voqea hikoya qilinib, xronologik jihatdan syujet chizig'i sentabrdan may-iyun oyiga qadar davom etadi. J.Styuart personajlari romanda ikki guruhga bo'linadilar: tog'liklar va vodiya yashaydigan shaharliklar. Bu ikkala guruhning o'zaro aloqalari janubning (South) umuman qora tanlilarga bo'lgan munosabatini aks ettiradi: bu xurofot, kamsitish va adolatsizlikka asoslangan munosabat bo'lib, fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonunlar qabul qilinishidan va so'nggi o'n yillikdagi liberallashtirish jarayonidan oldinroq yanada keng tarqalgan edi.

Melandjenlar nimasi bilan boshqalardan farq qiladi? Ular biroz ibtidoiy turmush tarzini olib borishadi. Yashash uchun ov qilishadi, tuzoq qo'yishadi, baliq tutishadi va tog'dan shifobaxsh o'simliklar yig'ishadi. Ular kasalliklarni davolashda xalq tabobatidan foydalanishadi va ekin ekishda belgilarga, ayniqsa oy va uning joylashishiga amal qilishadi. Diniy marosimlarida ilonlar bilan muomala qilishadi. Ular tabiatga yaqin yashashadi, uni juda yaxshi bilishadi. Asar qahramonlari munosabati orqali aynan shu qabila hamda uning jamiyatda qabul qilinmasligi, ularga nisbatan nafrat, haqoratga to'la muomala ko'rsatilishi, bunday muloqot ularni naqadar shaxsiyatlariga daxl qilishi muallif tomonidan mohirona ochib beriladi. Melandjenlar bunday muomala sababli o'zlari yashaydigan tog' hududiga shu qadar bog'lanishadiki, ularning olami faqat Senktuari tog'idan iborat.

S.Reznichenko insonning makonga mansubligi, makon hissi, uning ko'rinishlari va hayotda namoyon bo'lishini ijtimoiy kuzatuvlari asosida tahlil qilar ekan, makonga bog'lanish aspektlarini quyidagilarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi²⁶: hissiy bog'liqlik (emotional attachment); ijtimoiy aloqalar (social connections); ma'lum bir makonda yashash orqali tanishlik (familiarity with living in a certain place); mansublik (belonging); tegishlilik (rootedness). J.Styuart romanda Deysiya tasviri orqali qahramonda makon mansubligini portretida yaqqol namoyon etadi. Qizning sochi “as October poplar-leaf-golden as hers²⁷” iborasi bilan ifodalaniib, kuzda qizg'ish oltin tusga kiradigan populus daraxtining shoxlariga mengzatiladi. Populus majnuntoldoshlar guruhiga mansub bo'lib, aynan Appalachia tog' tizmalariga mansub daraxt hisoblanadi. Bu bilan yozuvchi qizning tog'da tug'ilib o'sganini, uning shu makonga xos tashqi ko'rinishga ega ekanini

²⁶ Reznichenko, S. Place Attachment and Sense of Place: Models and Phenomena. // Social psychology and society, № 3, 2014. // P. 19.

²⁷ Stuart J. Daughter of the Legend. – USA: McGraw-Hill Company, 1965. – P. 3.

tasvirlaydi. Bu aynan makonga bog‘lanishning mansublik aspekti orqali namoyon bo‘lishi kuzatilib, Deysiyaning bu makondan boshqa joyda u qadar unib-o‘sa olmasligi talqin etiladi, har qanday shaxs tegishli muhitda o‘zini qulay his qilishi, mansub makonida gullab-yashnashi badiiy voqelantiriladi.

J.Styuartning nasrida o‘ziga xos jihatlardan biri ikki qarama-qarshi konsept, holat va jamoaning yonma-yon tasviri keltirilishidir. Muhabbat nafrat bilan, do‘stlik dushmanlik bilan, ezgulik yovuzlik bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Romanning bosh mavzularidan biri ikki yosh qalb o‘rtasidagi sevgi, otashin muhabbat bo‘lib, Deyv va Deysiya orasidagi bu iliq munosabatlar syujet liniyasining so‘ngiga kelib, butun insoniyatga bo‘lgan mehr ekani, qahramonning yovuzlikga qarshi ezgu kurashi ekani oydinlashadi. Romanning dastlabki sahifalarida ikki navqiron yoshning uchrashuvi tasvirlanib, Deysiya yigitga bir joyga borishni taklif qiladi. Ular borishganida Deyv bu isqirt qamoqxona ekani, u yerda bir mahkum o‘ta ayanchli ahvolda ekani yaqqol aks ettiriladi. Mahbus Don Preyor Deysiyaning qavmidan bo‘lib, yarim butilka viski bilan qo‘lga tushgani uchun hech qanday hukmsiz qamoqqa olingan va sakkiz oydan beri chidab bo‘lmaydigan sharoitda tutqun sifatida saqlanadi. Vaholanki, tog‘li qavm uchun shunday jazo muqarrar, ammo vodiyliliklar uchun esa bunday jinoiy javobgarlikning o‘zi mavjud emas. Har qanday tog‘li mahbusning bu yerda saqlanayotganidan qamoqxona xo‘jayini kuniga moyana oladi. Jamiyatdagi adolatsizlik badiiy talqinida qamoqxonadagi xonaning batafsil tasvirlanishi ularga qilinayotgan zulmkorlik naqadar hadsiz ekanini anglash mumkin: “I watched a row of cockroaches sliding up and down the wall preening their long whiskers at the houseflies that swarmed in and out of the paneless windows between the iron bars. The smell of the place was enough to knock a man down”²⁸. Bu badiiy ifoda g‘amgin va iflos yashash sharoitini tasvirlaydi, unda ta’sirchan rivoya orqali noqulay shart-sharoit yoritiladi. Devorda tizilib yurgan tarakanlar, eshik-derazasiz temir panjaralardan uchib kirib-chiqayotgan pashshalar kir va betartiblikni teran ifodalasa, xona nafaqat besaranjom, balki insonning salomatligiga xavf tug‘diruvchi darajada iflos: zax va isqirt pollar, zanglagan temir krovatlar, iflos to‘shaklar, choyshab va yostiqning yo‘qligi buni ochiq-oydin ko‘rsatib beradi. Hatto suv chelaklarini pashshalarning qoplab olgani va gazetali qopqoqdagi qopqora bulut holatidagi pashshalar muhitning betartibligini va sanitariya holatining dahshatli darajada yomonligini ko‘rsatadi. Bu, insonning asosiy ehtiyojlari ta’minlanmagan sharoitlarni ifodalaydi.

“Daughter of the Legend” romani poetikasida ustuvorlik kasb etgan poetik xususiyatlardan yana biri bilvosita muallif (implied author – U. But nazariyasi)dir. Bu adib tomonidan yaratilgan, o‘ziga xos bir “rasmiiy yozuvchi” bo‘lib, u barcha qadriyatlarga nisbatan neytral emas²⁹. U ko‘pincha ishonchli roviy orqali ifodalanadi va o‘quvchini intellektual, axloqiy va hissiy jihatdan yo‘naltiradi. Bu konsepsiya romanda muhim o‘rin tutadi, chunki rivoya ishonchli hikoyachi, Deyv Stouking tomonidan beriladi. Deyv o‘zining madaniy tarafkashlikdan xoli

²⁸ Stuart J. Daughter of the Legend. – USA: McGraw-Hill Company, 1965. – P. 54.

²⁹ Spurlock, J. H. A Sociocultural and Rhetorical Analysis of Jesse Stuart’s Fiction. // A Dissertation Submitted to the Faculty of the Graduate School of the University of Louisville, 1985. // P. 105.

xarakteri bilan o'quvchini voqealar va mavzularni to'g'ri qabul qilishga undaydi. Deyvning betarafligi uning rivoyani samimiy va haqqoniy qilib tasvirlashiga imkon beradi, bu orqali muallifning g'oyaviy xabarini o'quvchiga yetkazish osonlashadi. Bilvosita muallif va ishonchli rivoyachining uyg'unligi romanning ta'sirchanligini oshiradi va o'quvchida chuqur axloqiy va hissiy iz qoldiradi. Fikrlarimizni asardan keltirilgan qahramonlar o'rtasida kechgan suhbat bilan dalillashga urinamiz. "You see that mountain?" Deutsia said to me soon as we'd walked fifty yards from the jail. "Yes." "We're a different people, living there," she said. "Do you live there?" "I do. That's Sanctuary Mountain." "How are you a different people?" "You'll have to learn"³⁰. Romanning birinchi bobidayoq kechgan bu suhbat butun asar davomida sekin-asta ochib boriladi. Bilvosita muallif asarda murakkab, g'oyatda ziddiyatli muammolarga yechim topishga, tahlil qilib, ijtimoiy illatlarning jamiyat a'zolariga ta'sirini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Bilvosita muallif, ishonchli roviy (Deyv Stouking) va boshqa qahramonlar (Deysiya, Ben, Hezzi) mushtaraklikda Appalachiya xalqi haqidagi etnik, hududiy, diniy, kasbiy va ta'lim stereotiplarini o'rganadi. Bu stereotiplarni ko'rsatish bilan birga, ularga qarshi boruvchi, yengishga intiluvchi va o'z shaxsiyati bilan yashovchi qahramonlar yaratadi. Deyv Stouking, Deysiya Hantun va Fern Heylston kabi qahramonlar madaniy illatlardan xoli bo'lib, insonlar bilan shaxsiy munosabatda erkin bo'ladilar. Bu bilvosita muallifning stereotiplardan tashqarida o'ylashi va boshqalarni insoniy sifatleri orqali baholashga bo'lgan chaqirig'ini aks ettiradi. Bunday yondashuv romanga ijtimoiy va axloqiy mohiyat bag'ishlab, kitobxonga muallifning tenglik va insoniylik haqidagi g'oyasini yetkazadi. Bu nafaqat stereotiplarni tanqid qilish, balki insoniyatning ulug'ligini, qadrini ulug'lashga xizmat qiladi.

Dissertasiyaning **uchinchi bobi "J.Steynbek nasri poetikasi: kompozitsiya va uslub"** deb nomlanadi. Mazkur bobda J.Steynbekning "The Chrysanthemums" hamda "The White Quail" hikoyalarining janriy tabiati, "Of Mice and Men" hamda "Cannery Row" qissalarining kompozitsion tuzilishi, qahramon va konflikt masalalari, "The Winter of Our Discontent" romani poetikasi tahlilga tortiladi. J.Steynbek hikoyalariga xos bo'lgan xususiyatlardan biri asarning boshlamasi yordamida xarakterning ijtimoiy roli, hayoti hamda ichki olamiga ishoralar berishdir. Zukko kitobxon personajlarning badiiy pozitsiyasi, ularning shart-sharoitga nisbatan munosabatini fahmlay olishi mumkin. "The Chrysanthemums" quyidagi satrlar bilan boshlanadi: "The high grey-flannel fog of winter closed off the Salinas Valley from the sky and from all the rest of the world. On every side it sat like a lid on the mountains and made of the great valley a closed pot"³¹. D.A.Lous J.Steynbek hikoyalari tadqiqida e'tiborli bir fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, muallif ijodiy faoliyati davomida asarlari uchun makon sifatida asosan tug'ilib o'sgan joyi, Salinas daryosi, Salinas Vodiysi, Monterey singari joylarni tanlab, ularning tasviriga keng o'rin ajratadi. Adabiyotshunos adibning asarlari

³⁰ Stuart J. Daughter of the Legend. – USA: McGraw-Hill Company, 1965. – P. 147.

³¹ Steinbeck J. The Long Valley. With an introduction and notes by John H. Timmerman. – USA: Penguin Books, 1995. – P. 26.

makoni tahliliga chuqur yondashib, dastavval yozuvchi hayotligida: “O‘ylaymanki, men shu keng vodiy – yovvoyi tepaliklararo yastanib yotgan dalalar, shaharchalar va rancholar haqida hikoya yozmoqchiman. Men bu joy dunyoning vodiysiga aylanishi uchun ham qanchalik yozishni istayotganimni anglayapman. Ammo bu qachondir kelajakda amalga oshadi. Bu ancha vaqt talab etadi³²”, deya ta’kidlagani epigrafda bayon etadi.

“The White Quail” hikoyasida muallifning asar boshlamasida bosh qahramonni o‘rab turgan jamiyat, kichik bir olam haqida ma’lumot keltiriladi. J.Steynbek xuddi nasrning boshqa janrlarida bo‘lganidek, kichik nasriy janrlarda ham tabiatshunos-yozuvchiligiga sodiq qoladi. Har bir hikoyasida personajlarning o‘ziga xos jihatlarini bayon qilishda batafsil makon tasviri bilan bir qatorda, o‘simlik dunyosi, undagi rango-ranglik va turfalikdan mohirona foydalanadi. “The Chrysanthemums” hikoyasida qahramonlar holati, xarakteri va ahvoli bayonida tund va g‘amgin ottenkalar qo‘llanganidek, mazkur hikoyada ham bosh qahramon tanishtirilishidan avval quyidagi boshlama keltiriladi: “The wall opposite the fireplace in the living room was a big dormer window stretching from the cushioned window seats almost to the ceiling—small diamond panes set in lead. From the window, preferably if you were sitting on the window seat, you could look across the garden and up the hill. At the edge of the lawn, a line of fuchsias grew like little symbolic trees. In front of the fuchsias lay a shallow garden pool, the coping flush with the lawn for a very good reason³³”. Mazkur parchada ham yozuvchining xuddi “The Chrysanthemums” hikoyasidagi singari makon tasviriga alohida e’tibor qaratilganining guvohi bo‘lamiz. Shinam mehmonxonaning izchil aks ettirishidan Meri hamda uning turmush o‘rtog‘i jamiyatning o‘ziga to‘q oilalaridan biri ekanini anglash mumkin. Xonadagi kamin, panjarali serhasham derazalar, hovli va uning uzra yastangan tepaliklarning kaftdek ko‘rinishi, ko‘rkam bog‘cha, aynan bejirim gulzorlarda landshaft dizayni uchun ekiladigan ekzotik gullar – tsinerarianing alvon rangidan tortib, akvamarin xiligacha, fuksiyalarning betakror manzarasi, hovuz hamda barvasta eman daraxtlarning viqor bilan turishi beixtiyor jannatmakon bir xonadonni kitobxon ko‘zi oldida gavdalan tiradi. M.J.Meyer ta’kidlaganidek, J.Steynbek prozasi xuddi ayol qanday muhitda o‘zini baxtli his qilishi mumkin, degan savolga javob izlayotgandek taassurot uyg‘otadi³⁴. Ifodadagi hashamatli derazalar badiiy detal sifatida polifunksionallik kasb etib, o‘zining birlamchi funksiyasidan tashqari, bu detal Merining hayotga nazar tashlashi uchun qo‘llangani, uy bekasi sifatida uning turmush tarzi bir xillik kasb etib, kundalik yumushi, tashvishi faqat shu hovli hamda uy ekaniga ishora qilinadi. Manbalarda “tsineraria” guli “himoya”, “fuksiya” guli “ishonchga asoslangan muhabbat” mazmunini ifodalashini inobatga olib³⁵, mazkur gullar ham o‘zining

³² Laws D.A. The Settings for the Stories: A Tour of John Steinbeck’s “The Valley of the World”. // The Steinbeck Review, 2009. Vol.6, No.1. – P.27. <https://www.jstor.org/stable/41582096>

³³ Steinbeck J. The Long Valley. With an introduction and notes by John H. Timmerman. – USA: Penguin Books, 1995. – P. 34.

³⁴ Steinbeck’s Short Stories in “The Long Valley”: Essays in Criticism. Edited by Tetsumaro Hayashi. Steinbeck Monograph Series, No.15. – USA: Ball State University, 1991. – P.11.

³⁵ <https://www.petalpublic.com/cineraria-flower/>

birlamchi funktsiyasi bilan birga, psixologik funktsiya bajarishi e'tiborni tortadi. Ushbu ayolning ham taqdiri o'zi yaratgan bo'gga tobe bo'lib, hayotining mazmuni tanho shu makon bo'lib qolgani, hatto turmush o'rtog'i Harri ham uning qalbini zabt eta olmagani, farzandsizligi sababli uning yagona umidi shu bo'g ekani anglashiladi. J.Steynbek "The Chrysanthemums" hamda "The White Quail" hikoyalarida badiiy voqelikdagi mohiyatni har ikkala ayol o'zi uchun teran haqiqatni anglagan, bunda o'quvchi yoki ilg'agan yoki nazaridan chetda qoldiradigan lahzasiga jo qiladi: bu daqiqa Eliza yo'l chetida irg'itib ketilgan xrizantemalarni ko'rganida hamda Meri bog'idan turib, xonasining derazasiga ma'yus tikilgan onida bo'lib o'tadi³⁶.

"Of Mice and Men" qissasi 1937 yilda yozilib, J.Steynbekka mashhurlik olib kelgan asarlardan biriga aylandi. Qissa bir qator munaqqidlarlarning tadqiqot obyekti sifatida dunyo miqyosida inson taqdirinining mohirona tasviri bois ko'plab kitobxonlarning ham e'tiborini tortdi. Garchi qissa dastlab boshqa sarlavha ostida vujudga kelgan bo'lsa ham, keyinchalik u "Of Mice and Men" deb ataldi. J.Steynbekning qissanavis sifatida mahorati "Cannery Row" asarida yanada mukammalroq ko'rinadi. 1945-yilda dunyo yuzini ko'rgan mazkur asar avvalgi qissalardan ham yanada puxta syujeti, qahramonlar galereyasidagi rang-barangligi, real tasviri hamda talqinda haqqoniyligi, inson taqdiri fojeasi ifodasi, o'ziga xos tili hamda kompozitsiyasi bilan e'tiborni tortadi. Steynbekshunos S.Baturin "Jon Steynbek va Amerika adabiyoti an'analari" kitobida uning ijodiga daxldor fikrlarini batafsil bayon etar ekan, mazkur qissa qamrab olgan hudud aholisi Amerika jamiyatini kengroq namoyon etishini ta'kidlaydi³⁷. Garchi asar asosiy qahramonlar Dok, Mek hamda uning do'stlari o'rtasidagi munosabatlar zamiriga qurilsa-da, kitobxon konserva zavodlari joylashgan hududda yashovchi aholi, ularning mashg'ulotlari va turmush tarzi to'g'risida to'liq taassurotga ega bo'ladi.

U.Souderning "Mad at the World. A Life of John Steinbeck" kitobida "Cannery Row" qissasining realligi haqida "shu qadar o'ta haqqoniyki, ko'chalar joylashuvi ham shunchalik tayanarli ifodalanganki, begona kimsa Monterey bo'ylab shu asardan xarita sifatida foydalanib, bemalol yo'lini topa oladi", deya e'tirof etadi³⁸. Ayonlashadiki, muallif zamona muammolariga loqayd hamda befarq tura olmadi, dastlabki qissada mamlakatdagi olovli 1930-yillarning suronli voqealarini yoritisa, keyingi qissada Ikkinchi Jahon urushi asoratlarning xalq hayotiga yetkizgan jiddiy zararini teran aks ettirdi. P.Shermuhammedovning fikricha, tasvirda haqqoniylikka rioya qilish adabiyotning asosiy qonunlaridan biri bo'lib, u salgina buzilsa, qahramonga nisbatan kitobxonning e'tiqodi pasayishi tayin³⁹. Shu sababli, yozuvchi qaysi mavzuga murojaat qilmasin, avvalo, tasvir haqqoniyligiga rioya qilmog'i lozim ekanini munaqqid ta'kidlaydi. J.Steynbek

³⁶ Steinbeck's Short Stories in "The Long Valley": Essays in Criticism. Edited by Tetsumaro Hayashi. Steinbeck Monograph Series, No.15. – USA: Ball State University, 1991. – P.1.

³⁷ Батурин С. Джон Стейнбек и традиции Американской литературы. – М.: Художественная литература, 1984. – С. 141.

³⁸ Souder W. Mad at the World. A Life of John Steinbeck. – USA: W.W.Norton & Company, 2020. – P. 287.

³⁹ Shermuhammedov P. Davr – qahramon taqdirida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 44.

qissalarida tasvirdagi haqqoniylikni ta'minlash bilan bir qatorda, inson dardlari, ijtimoiy muhitning unga ta'sirini imkon qadar batafsil aks ettirdi. Qissalarning qahramonlari Jorj, Lenni, Dok, Mek, Frenki tushgan ilojsiz vaziyatlar bevosita kitobxonni mushohadaga chorlaydi, kerakli xulosa chiqarishga undaydi.

J.Steynbekning har ikkala qissalarida inson hamda insoniylik, fojiaiy taqdir, ijtimoiy jaholat qurboniga aylangan kimsalar taqdiri asar leytmotivini tashkil etadi. Ijtimoiy illatlar va jaholat "Of Mice and Men"da Ko'lining ayoli, ranchodagi yollanma ishchilar hayoti, ish beruvchi hamda ishchilar munosabati tasvirida ochib beriladi. "I seen plenty of 'em. Like the old guy says, Curley don't take no chances. He always wins." He thought for a moment. "If he tangles with you, Lennie, we're gonna get the can. Don't make no mistake about that. He's the boss's son. Look, Lennie. You try to keep away from him, will you?"⁴⁰ Muallif qissaning boshidan oxiriga qadar ijtimoiy tengsizlik, sinflararo kurash, bu iyerarxiyada quyi qatlamning ilojsiz holatini qahramonlar dialoglarida ifodalashga harakat qiladi. Jorjning Lenni hamda xo'jayinning o'g'li orasidagi keskin vaziyatni kuzatib turib, hamrohini Ko'lidan uzoqroq turishga da'vat etishi, har qanday holatda u mag'lub bo'lishi, chunki jamiyatda Ko'li kabi hukmron insonlar har doim g'olib ekani, jamiyatdagi illatlardan biri deb ko'rsatiladi. Naturalist yozuvchi esa bu bilan inson qadri hamda sha'ni toptalinayotgan muhitda personajlarning o'ta nochor ruhiyatini ham tasvirlar yordamida aks ettiradi. "He thought for a moment", ya'ni "Bir dam o'yg'a botdi" gapi aynan personajda kechgan ong oqimi, uning tushkun kayfiyati, jaholatga nisbatan kurashda g'alaba qozona olmasligini anglab turishi, achinarli hayotini taftish va tahlil qilishini yaqqol ko'rsatib beradi.

J.Steynbek mazkur qissada ijtimoiy illatlar, jamiyatdagi notenglik, insoniy xislatlar tanazzuli kabi mavzular talqinida har doim ham muallif tilini qo'llamaydi, ba'zida personajlar tilidan boshqa qahramonlar xususida mulohaza yuritadi. Bosh qahramon Dokning ichki monologi buning aynan isbotidir. "It has always seemed strange to me. The things we admire in men, kindness and generosity, openness, honesty, understanding and feeling are the concomitants of failure in our system. And those traits we detest, sharpness, greed, acquisitiveness, meanness, egotism and self-interest are the traits of success. And while men admire the quality of the first they love the produce of the second."⁴¹ Bosh qahramon atrofida jam odamlarning tashvishlari, qayg'u-hasrati hamda nadomatlaridan xabardor, uni shu sababli nega doim yaxshi, mehribon, samimiy va halol kishilar jamiyatda aziyat chekishi, aksincha, baxil, qo'pol, xudbin hamda shafqatsizlar muvaffaqqiyatga erishishi o'ylantiradi. Mazkur personajning ichki olamida kechgan bu mulohazalar bevosita u hukmron jamiyatga befarq emasligini, u faol a'zo bo'lishga urinishi, mavjud aqidalarga qarshi kurashishi, ilojsiz odamlarga yordam qilib, ularning kelajagiga ishonchining so'nmasligiga harakat qilishi e'tiborni tortadi. Badiiy psixologizmning analitik prinsipi "qalb dialektikasi" sifatida e'tirof etilishining poetik kuchini shu misolda guvohi bo'lamiz.

⁴⁰ https://telegram.me/eng_books

⁴¹ <https://www.6lib.ru/books/Cannery-Row-198401.html>

| № | Mavzular | Misollar |
|----|---|---|
| 1. | <i>do'stlik</i> | Iten va Denni orasidagi uzoq muddat saqlangan, ammo keyinchalik Iten tufayli o'zgargan yaqinlik: <i>Danny is as near to a brother as I ever had, same age and growing up, same weight and strength</i> ⁴² . |
| 2. | <i>oilaviy rishtalar, ota va farzand muammolari</i> | Itenning ixcham oilasi, iliq ota va farzand munosabatlari, ammo otaga nisbatan susayayotgan hurmat ham tasvirlanadi: <i>I presume that every family has a magic thing, a continuity thing that inflames and comforts and inspires from generation to generation</i> ⁴³ . |
| 3. | <i>muhabbat</i> | Itenning turmush o'rtog'i Meriga sevgisi: <i>My Mary was just beautiful, just beautiful and shining. A light from inside her oozed out of her pores</i> ⁴⁴ . |
| 4. | <i>xiyonat</i> | Itenning o'z yaqinlariga xiyonati: <i>"You're a fake, Ethan." "I know it. But can't I be a humble fake?" "I'm afraid of you now. I wasn't before." "I can't think why."</i> ⁴⁵ |
| 5. | <i>ajdodlarga ehtirom</i> | Itenning ota-bobolarini muntazam yodga olishi: <i>Our town of New Baytown is a handsome town, an old town, one of the first clear and defined whole towns in America. Its first settlers and my ancestors..</i> ⁴⁶ |
| 6. | <i>sadoqat</i> | Ellenning otasi oldida sadoqatli farzand sifatida mehr ko'rsatishi, romanning so'ngiga qadar unga ishonishi: <i>Maybe it is Ellen who will carry and pass on whatever is immortal in me. And in my greeting I put my arms around her and she, true to form, tickled my ear and giggled. My Ellen. My daughter</i> ⁴⁷ . |
| 7. | <i>halollik</i> | bosh qahramon dinamikasida bu fazilat o'zgarib borishi kuzatiladi, ammo ichki kuch va tashqi ta'sir (qizi Ellenning mehri) bu xislatni saqlanishiga omil bo'ladi: <i>I let him out and sat down again and turned out the light and sat listening to my house. It thudded like a heart, and maybe it was my heart and a rustling old house</i> ⁴⁸ . |
| 8. | <i>mardlik</i> | Itenning o'z xatolarini tan olishi: <i>My light is out. There's nothing blacker than a wick</i> ⁴⁹ . |

“Qayg‘ularimiz zimistoni” romani chuqur hamdardlik bilan sug‘orilgan bo‘lib, muallif unda butun umri davomida qalbini hayajonga solgan mavzularni yoritdi. Garchi “G‘azab shingillari” asarida kitobxon hissiyotlarini cho‘qqiga olib

⁴² https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html

⁴³ https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html

⁴⁴ https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html

⁴⁵ https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html

⁴⁶ https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html

⁴⁷ https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html

⁴⁸ https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html

⁴⁹ https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html

chiqqan bo'lsa ham, muallif baribir qoniqish his etmaydi. O'zining so'nggi romanida J.Steynbek bizga tanish mavzuga rang-baranglik baxsh etishga harakat qildi. O.Osmuxina e'tiroficha, "Qayg'ularimiz zimistoni" XXasr boshida AQSHda hukmron jamiyatda ma'naviy beqarorlik natijasida ongli ravishda vujudga kelgan maqsadli yozilgan ijod mahsulidir⁵⁰.

Roman poetikasida inson va uning ijtimoiy-ma'naviy va biologik dunyoni yangicha talqin etish tamoyili yaqqol namoyon bo'ladi. Unda inson va tabiat, inson va jamiyatning uzviy rishtalarini kuzatamiz. Har ikkala munosabatlar tasviri ham bir maqsadga yo'naltiriladi. Ijodkor romanda insoniyatning maishiy turmush tarzini ifodalar ekan, umumruhiyat munosabatlari uzluksizligi inson umri ibtidosi va intihosi, qismati va borlig'ini to'la idrok etishga yo'l ochadi.

"Qayg'ularimiz zimistoni" romanida tashqi harakat dinamikasi yetakchilik qilib, ularda muayyan maqsad yo'lidagi xatti-harakatlari, kurash va to'qnashuvlari, hayotidagi burilishlar tasvirlanadi, shu sababli ularning taqdirida, ijtimoiy mavqeida bir qator o'zgarishlar yuz beradi. Asarda voqealar to'laqonli aks ettirilgan bo'lib, ular badiiy-estetik qimmat kasb etadi, ammo mazkur romanda ichki harakat dinamikasi ham kuzatiladi. Asardagi voqealar rivoji davomida Iten ruhiyatidagi jarayon, undagi g'alayon va o'zgarishlar ifodalanadi. J.Steynbek romanga sarlavha sifatida Shekspirning sonnetidan (*intertekstuallik*) foydalanar ekan, asar tuzilishi ham xuddi sonnetda bo'lgani kabi ikki qismga bo'linadi. Bosh qahramon Iten ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlar uning nutqida namoyon bo'ladi. U ish yuritadigan do'konida, yolg'iz qolish maqsadida o'z vaqtini o'tkazadigan sohilda o'tirganida fikrlari "tilga" kiradi: "What are morals? Are they simply words? Was it honorable to assess my father's weakness, which was a generous mind and the ill-founded dream that other men were equally generous? No, it was simply good business to dig the pit for him. He fell into it himself. No one pushed him. Was it immoral to strip him when he was down? Apparently not".⁵¹ Bosh qahramon Iten quyidagi fikrlari bilan jamiyatdagi illat – beparvolik va loqaydlikga nisbatan e'tirozini ifodalaydi. Otasining omadsizligi, kulfati va baxtsizligini bamaylixotir atrofidagi insonlar tomonidan qabul qilinishi, uni qo'llash o'rniga, aksincha, kundan-kunga shaxsiy inqirozga yuz tutayotganini bemalol kuzatishlari achinarli vaziyatligini ta'kidlaydi.

To'rtinchi bob "**T.Vulf nasrida modern uslub ustuvorligi**" deb nomlanib, unda T.Vulf kichik nasrida poetik talqin individualligi, "The Lost Boy" qissasida liro-epik bayon spetsifikasi, "You Can't Go Home Again" asarida modern roman janri xususiyatlari garmoniyasi misolida muallif nasri poetikasi tahlilga tortiladi.

T.Vulf kichik nasrida modernizm ustunligi diqqatni tortadi. Adib hikoyalarida qator o'zgarishlarni amalga oshirdiki, mazkur tajribalar uning katta nasiry janrda yaratilgan romanlari uchun zamin bo'lib xizmat qilgani yillar o'tib oydinlashdi. Quyidagi jihatlarni T.Vulf kichik nasrida ustuvorlik qilganini tadqiqot jarayonida kuzatdik:

⁵⁰ Осьмухина О. Проблема человека в романах Дж.Стейнбека "Гроздь гнева" и "Зима тревоги нашей". Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2018. № 3(81). Ч. 1. С. 45-49.

⁵¹ https://royallib.com/book/Steinbeck_John/The_Winter_of_Our_Discontent.html



T.Vulf hikoyachiligi poetikasida kuzatilgan mazkur tendensiyalar tahlilini keltirishdan avval eng asosiy individual hamda spetsifik jihat bu avtobiografik yondashuv ekanini, dastlab shu xususiyatni tadqiq etishga, so'ngra ustuvor qirralarni tahlil qilishga chog'landik. J.Bentz "A Critical Analysis of the Short Fiction of Thomas Wolfe" dissertasiyasida muallifning yozuvchi sifatida shakllanish bosqichlari, hikoya janri nazariyasi hamda janriy ta'rifi, muallif kichik nasr namunalarida avtobiografik yondashuv, satiradan unumli foydalanilishi, adibning hikoya janriga modernistik munosabati, syujetli hikoyalar, lirik hikoyalar, epifaniyalar, vaqt mavzusiga bag'ishlangan hikoyalari, yozuvchi ijodida Janub mavzusi singari jihatlarni tahlil qiladi. XX asr AQSH hikoyachiligi takomilida modernizm an'alarining rivojini qayd etgan adabiyotshunos bu davrda yozuvchilar tradision usuldan og'ib, novatorona tajribalar asosida kichik nasriy asarlar yaratishganini ta'kidlaydi⁵². Yangilik shaklda emas, keyinchalik mazmunda ham ro'yi-rost aks etdi. Hikoyalardagi har bir element umumiy g'oya ro'yobiga xizmat qildi, ko'proq ruhiyat olamiga kirib borildi hamda ritorik strategiya, parallel tasvir, takror, birinchi shaxs tilidan rivoya ustuvorlik kasb etdi. "No Cure for It" hamda "Return" hikoyasi keltirilgan mazkur fikrlarimizni yaqqol isboti bo'la oladigan asarlardir.

T.Vulf hikoyalarida avtobiografik unsurlarni juda ko'plab uchratish mumkin. "No Cure for It" hikoyasi ham bundan mustasno emas. Adib oilasi, uning a'zolari, ota-onasi, aka-ukalari hamda opa-singillari, hatto o'zi tug'ilib o'sgan Eshvilldagi har bir ko'cha, har bir inson tasviriga alohida e'tibor qaratadi. "No Cure for It" ham shunday asarlardan biri bo'lib, asar qahramonlari muallif ijodidagi asosiy figura Eugene Gant, uning ota-onasi va doktor obrazlaridan iborat. Modern hikoyachilikda yetakchi tendensiya sanalgan rivoya turlaridan biri – birinchi shaxs tilidan voqealar bayon qilinadi. Juda mo'zajgina voqeani jamlagan, taxminan ikki ming so'zdan tashkil topgan bu hikoyada universal mavzulardan tashqari qator emotsional-psixologik yondashuvdagi masalalar tasviriga urg'u berilganini ham

⁵² Bentz J.M. A Critical Analysis of the Short Fiction of Thomas Wolfe. A Thesis In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy, 1991. – P. 134.

